

RUHIY KASALLIKKA CHALINGAN SHAXSLARGA NISBATAN TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI: QONUNIY ASOSLAR VA SUD AMALIYOTI

Sadulayeva Farida Farkod qizi

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik Fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 12.12.2008 yildagi qarori asosida ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilishini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va sud amaliyoti tahlil qilingan. Maqolada tibbiy choralarining huquqiy asoslari, psixiatriya ekspertizasining roli, sudlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar hamda Plenum qarorining amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bemorlarning huquqiy holati va sud himoyasi bilan bog'liq masalalarga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Plenum qarori, ruhiy kasallik, tibbiy majburlov choralar, sud amaliyoti, jinoyat-protsessual huquq, psixiatriya ekspertizasi, shaxs erkinligi, sud qarori, sog'liqni saqlash, Oliy sud.

MEDICALLY COERCIVE MEASURES AGAINST INDIVIDUALS WITH MENTAL ILLNESS: LEGAL GROUNDS AND JUDICIAL PRACTICE

Annotation: This article analyzes the legislation and judicial practice governing the use of medically induced coercion measures against persons with mental illness based on the decision of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated 12.12.2008. The article covers the legal framework of medical measures, the role of psychiatric examination, mistakes made by the courts and the practical significance of the Plenary decision. It also focuses on issues related to the legal status of patients and judicial protection.

Keywords: Plenary decision, mental illness, medical coercion measures, judicial practice, Criminal Procedure Law, psychiatric examination, freedom of personality, Court decision, health care, Supreme Court.

ПРИНУДИТЕЛЬНЫЕ МЕРЫ МЕДИЦИНСКОГО ХАРАКТЕРА В ОТНОШЕНИИ ЛИЦ С ПСИХИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И СУДЕБНАЯ ПРАКТИКА

Аннотация: В данной статье проанализированы законодательные акты и судебная практика, регулирующие применение принудительных мер

медицинского характера в отношении лиц с психическими заболеваниями на основании решения Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан от 12.12.2008 года. В статье освещаются правовые основы медицинских мер, роль психиатрической экспертизы, ошибки, допущенные судами, а также практическое значение решения Пленума. Также уделяется внимание вопросам, связанным с правовым статусом пациентов и судебной защитой.

Ключевые слова: Постановление Пленума, психическое заболевание, меры медицинского принуждения, судебная практика, уголовно-процессуальное право, психиатрическая экспертиза, свобода личности, решение суда, здравоохранение, Верховный суд.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 12.12.2008 yildagi qarori ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanilishini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining bir xilda va to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu qaror amaldagi jinoyat-protsessual va sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikning mazmunini olib beradi, shuningdek, sud-amaliyotida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim xatolarning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilanishicha, ruhiy kasallikka chalingan, ijtimoiy xavfli harakat sodir etgan, lekin o‘z harakatlarining oqibatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan shaxslarga nisbatan jinoyat jazosi emas, balki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llaniladi. Ushbu chora jinoyatga oid ijtimoiy xavfni bartaraf etish va bemorning sog‘lig‘ini tiklashga qaratilgan.

Plenum qarorida aytishicha, tibbiy majburlov choralar to‘g‘risida masala ko‘rib chiqishda sudlar bemorning ruhiy holatini mustaqil baholamaydi, balki psixiatriya ekspertizasi xulosasiga tayanadi. Shu bilan birga, sudlar ekspertiza xulosasini tanqidiy tahlil qilishi, u yetarli asosga ega bo‘lmasa, qo‘sishimcha ekspertiza tayinlashi zarurligi ta’kidlanadi.

Plenum qarorida sudlar amaliyotida uchraydigan bir qator muammoli holatlar ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan:

Ruhiy kasallik mavjud bo‘lsa-da, jinoyat sodir etilgan vaqtida shaxs o‘z harakatlarini anglagan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda tibbiy chora emas, jazo tayinlanishi kerak.

Sudlar ayrim hollarda ruhiy kasallikning turi va og‘irligini hisobga olmasdan noto‘g‘ri qarorlar chiqargan.

Davolanish davomiyligi va samaradorligini baholamasdan turib tibbiy choraning muddatidan oldin tugatilishi holatlari ham aniqlangan.

Mazkur Plenum qarori sudlarga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beradi:

Tibbiy majburlov choralarining turini (psixiatriya statsionarida umumiy, kuchaytirilgan yoki maxsus nazorat ostida) aniqlash mezonlari.

Har olti oyda bemorning sog‘lig‘ini qayta ko‘rib chiqish zarurati.

Davolash muassasasi va prokuratura organlari bilan sudlar o‘rtasidagi axborot almashinuvining huquqiy mexanizmlari.

Shuningdek, qarorda shaxs huquqlarini himoya qilishga oid konstitutsiyaviy talablar, xususan, shaxsiy erkinlik va adolatli sud muhokamasi prinsiplari ham yodda tutilgan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki Oliy sud Plenumining 12.12.2008 yildagi qarori sud amaliyotida aniqlik, barqarorlik va insonparvarlik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. U ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan noxolis yoki asossiz tibbiy chora qo‘llash holatlarining oldini oladi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Sudyalarga esa mazkur murakkab toifadagi ishlarni adolatli ko‘rib chiqish uchun muhim metodik yo‘riqnomalar bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori. <https://lex.uz/docs/1601125>
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://lex.uz/>
2. <https://lex.uz/docs/1601125>
3. <https://lex.uz/docs/-111453>